Onlayn savdo maydonchalarida mijoz sodiqligini shakllantirishda marketing strategiyalarining o'rni.....	706
<b>Vaxromov Xudoyor Xabibullo o'g'li</b>	
Методологические основы оценки эффективности «зеленых» технологий в строительном секторе.....	710
<b>Тожиева Дилфуза Бабамуратовна</b>	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlar auditi masalalarini rivojlantirish.....	715
<b>Mahmudov Saidjamol Kadirjanovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayonlari .....	722
<b>Mahmudova Sevara Rahmat qizi, Alardonov Muhammadali Ibragimovich</b>	
Improving the efficiency of modern housing fund management .....	726
<b>D.A. Berdiyeva, Aminova Naima Umar qizi</b>	
Kichik va o'rta biznes subyektlari eksport salohiyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish .....	731
<b>Abduqahhorov Azizbek Abdullo o'g'li</b>	



From Science to Business: How Universities Stimulate Innovation.....	735
<b>A. Bobozhonov, A.M. Shatre, V. Kirilova Vladimirova, R.Kh. Karlibaeva</b>	
Tashkilotlarda risklarni boshqarish strategiyalarining samaradorligini baholash: nazariy va amaliy yondashuvlar .....	740
<b>Husanova Dilnura Mamrajab qizi</b>	
Turli mulkchilik shakllaridagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ekologik auditining nazariy jihatlari .....	744
<b>Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li</b>	



## TURLI MULKCHILIK SHAKLLARIDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR FAOLIYATINING EKOLOGIK AUDITINING NAZARIY JIHATLARI

### Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li

Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
MTU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ekologik audit o'tkazishning ilmiy-nazariy asoslari, auditorlik xizmatlarining hozirgi holati, rivojlanish muammolari va istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. O'zbekistonda ekologik auditning ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlash va investitsiya jozibadorligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ekologik auditning xalqaro standartlarga muvofiqligi, korxonada imidjini shakllantirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash masalalari ham o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologik audit, rivojlanish istiqbollari, O'zbekiston, yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring.

**Abstract:** This article presents a scientific analysis of the scientific and theoretical foundations of environmental auditing in Uzbekistan, the current state of audit services, and the challenges and prospects for development. The voluntary implementation of environmental auditing in Uzbekistan plays a significant role in ensuring environmental safety and increasing investment attractiveness. It also examines the compliance of environmental auditing with international standards, the development of a company's image, and the strengthening of environmental safety.

**Key words:** environmental audit, development prospects, Uzbekistan, green economy, environmental monitoring.

**Аннотация:** В данной статье представлен научный анализ научно-теоретических основ экологического аудита в Узбекистане, современного состояния аудиторских услуг, проблем и перспектив развития. Добровольное внедрение экологического аудита в Узбекистане играет важную роль в обеспечении экологической безопасности и повышении инвестиционной привлекательности. При этом рассматриваются вопросы соответствия экологического аудита международным стандартам, формирования имиджа предприятия и укрепления экологической безопасности.

**Ключевые слова:** экологический аудит, перспективы развития, Узбекистан, зеленая экономика, экологический мониторинг.

### KIRISH

Dunyo aholisi sonining jadal o'sishi bilan bog'liq iqtisodiy rivojlanish jarayonlari zamonaviy resurs talabchan texnologiyalar sharoitida tabiat muhitining keskin o'zgarishiga hamda unga tuzatib bo'lmaz darajada zarar yetkazilishiga olib kelmoqda. Jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalar hozirgi davrda tabiiy resurslardan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish, shuningdek, miqyosi jihatidan mislsiz bo'lgan atrof-muhitning ifloslanishi bilan tavsiflanadi. Bunday jarayonlar o'z navbatida tabiiy ofatlarning ko'payishi, texnogen avariya va falokatlar sonining ortishi, insoniy qurbonlarning ko'payishi hamda katta hajmdagi moddiy yo'qotishlarga olib kelmoqda.

Mazkur holat ekologiya va iqtisodiyot talablarini uyg'unlashtirishga qaratilgan nazariy va konseptual yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, ekologik jihatdan xavfsiz barqaror rivojlanish konsepsiyasini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangan. Ushbu maqsadga erishishda mavjud



va potensial ekologik-iqtisodiy muammolarni hal etishning istiqbolli hamda noan'anaviy yo'nalishlaridan biri sifatida ekologik audit alohida e'tirof etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik audit — bu tashqi va ichki tizimlarni baholash, atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish uchun amalga oshiriladigan kompleks tekshiruvdir. Serov [1] ekologik auditni ishlab chiqarish jarayonida tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish jarayoni sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, ekologik audit nafaqat korxonaning ekologik xavfsizligini ta'minlash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

R.K. Dixonning fikriga ko'ra, ekologik audit — bu xarajatlarni kamaytirish va resurslarni tejash vositasi. Dixon [2] ekologik auditni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejamliligini ta'minlash vositasi sifatida qaraydi.

Mamlakatimiz olimlari ham ekologik auditning ijtimoiy va iqtisodiy rolini, shuningdek, davlat va xususiy sektorlardagi farqlarni o'rganadilar. O'zbekiston sharoitida ekologik auditning amalga oshirilishi davlat ekologik nazoratini to'ldiruvchi vosita sifatida muhim rol o'ynaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tadqiqot abstract-tanqidiy fikrlash va miqdoriy usullarga asoslangan. Shuningdek, muallif tanqidiy fikrlash va tahlil orqali turli vaziyatlarni o'rganadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ekologik audit o'z mohiyatiga ko'ra davlat, ishlab chiqarish va jamoatchilik ekologik nazorati bilan uzviy bog'langan kasbiy tadbirkorlik faoliyati turi sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ekologik audit atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal etishdagi sifat jihatidan yangi va tizimli yondashuvni ifodalaydi.

Ekologik audit ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin: majburiy va ixtiyoriy (tashabbusiy). Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ekologik auditning samarali bo'lishi avvalo xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zlari manfaatdor bo'lgan holda uni tashabbusiy tarzda joriy etishiga bog'liq.

O'zbekiston hududida ekologik audit ixtiyoriy asosda amalga oshirilmoqda. Shu bois, bu yo'nalishdagi faoliyat sohasi va metodologik ishlanmalar buyurtmachi-korxonalar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Boshqacha aytganda, ekologik audit xizmatlari mazkur korxonalar uchun amaliy zaruriyat darajasida ko'rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan, ekologik auditning joriy etilishi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Fikrimizning dalili sifatida 1-jadvalni ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ekologik auditning dolzarbligi

Yo'nalishlar / Omillar	Izoh
Iqtisodiy zarurat	Investitsion jarayonni qo'llab-quvvatlash, xususiylashtirish jarayonlarida ishonchlilikni oshirish.
Ekologik zarurat	Ekologik ekspertiza, ekologik sertifikatlash va ekologik sug'urtalash tizimini kuchaytirish.
Ijtimoiy zarurat	Jamiyat va aholining salomatligini muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash.
Tabiiy resurslar	Tabiiy resurslarning kamayib borishi, atrof-muhit holatining yomonlashuvi.
Korporativ imidj	Korxonalar uchun "yashil" imidjni shakllantirish, aholiga va jamoatchilikka ijobiy ta'sir ko'rsatish.
Favqulodda vaziyatlarning oldini olish	Avariyalarni bartaraf etish va ekologik xavf tug'diruvchi vaziyatlarning oldini olish.
Munozarali vaziyatlarni hal qilish	Murakkab ekologik mojarolarni hal qilishda vosita sifatida qo'llanishi.
Davlat organlari bilan munosabatlar	Ekologik nazorat organlari va boshqaruv tizimlari bilan aloqalarni tartibga solish.

Korxonalarda ekologik auditni o'tkazishga majbur qiluvchi uch asosiy omil mavjud bo'lib, ular ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Masalan, atrof-muhitning yomonlashuvi tabiiy muhitning degradatsiyasiga, ekotizimlarning buzilishiga, millat salomatligiga oid ijtimoiy muammolarning kuchayishiga hamda aholining ekologik hayot sifati pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga,



bu iqtisodiyot uchun ham yo'qotish hisoblanadi, chunki korxonalar zararli moddalar chiqindilari uchun to'lovlar amalga oshiradi va ekologik zararlarni qoplash majburiyatini oladi.

Global ekologik muammolarning, jumladan, atmosfera havosining, suv havzalarining va tuproqning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi insoniyat sivilizatsiyasining degradatsiyasiga olib kelishi mumkin.

Tabiiy resurslardan mavjud iste'mol sur'atlari saqlanib qolsa, ular yaqin yillarda tugashi mumkin. Ayniqsa, ilgari cheksiz deb qaralgan hayotiy resurslar — ichimlik suvi zahiralari, atmosfera havosi, tuproq unumdorligi va biologik resurslarning tez tugab borayotgani tashvish uyg'otmoqda. Mazkur resurslarning iste'moli va ular ustidan oqilona nazorat qilish korxonalar miqyosida ekologik audit yordamida amalga oshiriladi.

Global ekologik muammolar iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liq. Biroq, ularning muhim ahamiyatiga qaramay, ko'plab korxonalar hali ham tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga mablag' tejashda davom etmoqda va ekologik sohalarga investitsiya kiritishning kelajakdagi foydasini to'liq anglab yetmagan. Shu sababli, tashabbusiy ekologik auditni ishlab chiqish va joriy etishning asosiy omillari sifatida iqtisodiy sabablar yetakchi o'rin egallaydi.

Korxonalarda ekologik auditni joriy etishga turtki beruvchi omillar uchta asosiy guruhga bo'linadi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy omillar. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ekologik auditning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Ekologik auditning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etish jarayonida namoyon bo'ladi. Xususan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda ekologik audit o'tkazilishi majburiy hisoblanadi. Auditorlik xulosasi investitsiya loyhasini moliyalashtirish yoki rad etish qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ekologik sertifikatlash (ISO 14001 standarti asosida) korxonaning xalqaro bozorda faoliyat yuritishi uchun zarur shart hisoblanadi. Shuningdek, ekologik sug'urtalash risklarni aniqlash, sug'urta stavkalarini belgilash va favqulodda ekologik vaziyatlarning oldini olish imkonini beradi. Xususiylashtirish jarayonida ham ekologik omillarni hisobga olish muhim bo'lib, xavfli korxonalar uchun maxsus ekologik sanitariya fondlari shakllantiriladi.

Ekologik auditning asosiy vazifalaridan biri korxonada faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholash va mavjud ekologik xavflarni aniqlashdir. Bu jarayon tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, suv, havo, tuproq va biologik resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ekologik audit ekologik xavflarni baholash va texnogen avariylar, ekologik falokatlar oldini olish imkonini beradi.

Ekologik audit ijtimoiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, korxonalar uchun "yashil" imidjni shakllantirish orqali jamoatchilik va aholida ijobiy qiyofa yaratadi. Ikkinchidan, ekologik siyosat, maqsad va natijalar to'g'risida aholiga ochiq axborot berilishi orqali korxonalar va jamoatchilik o'rtasida ishonchli munosabatlar qaror topadi. Uchinchidan, ekologik audit yordamida korxonalarda ekologik falokatlar va yirik texnogen avariylar xavfi baholanib, ularning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, ekologik audit iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarining uyg'unlashuvini ta'minlaydi. U korxonaga investitsiya jalb etishda, xalqaro bozorda faoliyat yuritishda, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda va jamoatchilik ishonchini mustahkamlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. Ekologik auditni o'tkazish zaruriyatini belgilovchi asosiy omillar

Faktor guruhi	Asosiy omillar	Mazmuni
Iqtisodiy omillar	- Milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etish (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki talablari)	Investitsiya loyihalari ekologik auditdan o'tishini talab qiladi, natija moliyalashtirish qaroriga ta'sir ko'rsatadi.
	- Ekologik sertifikatlash (ISO 14001)	Korxonalarni xalqaro standartlarga moslashtirish, ekologik menejment tizimini baholash.
	- Ekologik sug'urtalash	Risklarni aniqlash, sug'urta to'lovlarni belgilash, ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish.
	- Xususiylashtirish jarayonida ekologik omillarni hisobga olish	Korxonalarni ekologik ekspertizadan o'tkazish, xavfli subyektlar uchun maxsus sanitatsiya fondlarini shakllantirish.
Ekologik omillar	- Atrof-muhitga ta'sirni baholash	Korxonalar faoliyatining ekologik oqibatlarini aniqlash va monitoring qilish.
	- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	Suv, havo, tuproq, biologik resurslardan samarali foydalanish ustidan nazorat.
	- Ekologik xavflarni oldini olish	Avariylar va ekologik falokatlar oldini olish.



<b>Ijtimoiy omillar</b>	- "Yashil" imidjni shakllantirish	Jamoatchilik va aholida ijobiy ekologik qiyofa yaratish.
	- Jamoatchilik va aholiga axborot berish	Ekologik siyosat, maqsadlar va natijalar haqida ochiq ma'lumot tarqatish.
	- Ekologik falokatlar va texnogen avariya larning oldini olish	Korxonada xavfli vaziyatlarning paydo bo'lishini baholash va bartaraf etish.

O'zbekiston va xorijiy normativ-huquqiy hujjatlar hamda ekologik va iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida, tekshiruv obyekti turiga bog'liq holda mavjud audit turlari tizimida ekologik auditning o'rnini aniqlash, shuningdek, "ekologik audit" tushunchasining mohiyatini anglashga doir asosiy yondashuvlar turlichadir.

Xorijiy va MDH olimlari "ekologik audit" tushunchasiga oid o'nlab ta'riflar berishgan. Bunday xilma-xillik, bizningcha, quyidagi sabablarga asoslanadi:

a) masalaning yetarli darajada o'rganilmaganligi — ekologik audit tushunchasi iqtisodiy-ekologik nazariya va amaliyotda yaxlit tizim sifatida hali to'liq shakllanmagan;

b) ekologik auditning yangi shakllarini izlash va amaliy auditorlar hamda nazariy olimlar tomonidan ularni ochib borilishi;

c) ekologik audit obyektlarining keng doirasi va uning mexanizmlarining katta qamrovga egaligi natijasida tushunchaning ko'p qirraliligi.

Shu bilan birga, "ekologik audit" tushunchasining turli talqinlarini aniqlash mumkin (3-jadval).

### 3-jadval. Olimlarning ekologik auditga yondashuvlari

Olim	Yondashuv	Mazmuni
A. G. Granberg [3]	Huquqiy yondashuv	Ekologik audit – bu korxonaning tabiatni muhofaza qilish qonunlariga rioya etishini tekshirish vositasi; davlat ekologik nazoratini to'ldiradi.
R. K. Dixon	Iqtisodiy yondashuv	Ekologik audit – ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va investitsion jozibadorlikni oshirish vositasi.
E. F. Schumacher [4]	Ekologik yondashuv	Ekologik auditning asosiy maqsadi – korxonaning atrof-muhitga ta'sirini baholash, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash.
V. I. Vernadskiy [5]	Ijtimoiy yondashuv	Ekologik audit ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholining ekologik xavfsizligini mustahkamlash va korxonada "yashil" imidj yaratish omili sifatida baholanadi.
ISO 14001[6]	Menejment yondashuvi	Ekologik audit korxonaning ekologik menejment tizimi samaradorligini baholash va rivojlantirish vositasi sifatida qo'llaniladi.
J. Elkington [7]	Integrativ yondashuv	Ekologik audit ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni birlashtirib, barqaror rivojlanish strategiyasining muhim elementi sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda ekologik audit nazariyasini yangi faoliyat turi sifatida shakllantirish, uni konseptual va tashkiliy-huquqiy asoslardan iborat fundamental tizim darajasida taqdim etish bo'yicha urinishlar kuzatilmoqda. Bu boradagi dastlabki qadamlardan birini G. P. Serov va Rossiya Davlat ekologiya qo'mitasi huzuridagi "Ekoxavfsizlik" ilmiy-tadqiqot markazi olimlari guruhi amalga oshirgan. Ushbu guruh tarkibiga T. A. Butolin, A. M. Karellov, M. S. Bespalov, L. G. Gindis, A. V. Komarov, I. V. Limonova, A. Z. Povarov, I. M. Potravniy, Y. V. Ryumina va boshqalar kiradi.

Mazkur konsepsiyaga ko'ra: "Ekologik audit – bu obyektiv tarzda olingan va baholangan auditorlik ma'lumotlarini tekshirishning hujjatlashtirilgan tizimli jarayoni bo'lib, u audit mezonlariga muayyan ekologik faoliyat, voqea, shart-sharoit, boshqaruv tizimi yoki ular haqidagi ma'lumotlarning mos kelishini aniqlash hamda ushbu jarayon natijalarini mijozga yetkazishni nazarda tutadi."

Bizning fikrimizcha, bunday ta'rif bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ekologik audit mustaqil jarayon bo'lib, korxonada ma'muriyati, buyurtmachi yoki audit obyektining xodimlaridan bevosita ta'sirga bog'liq emas;

- auditning tizimlilik xususiyati ta'kidlanadi, bu esa ijobiy natijalarga erishish uchun muhim hisoblanadi;

- auditor audit obyektining holati va faoliyati muayyan mezonlarga mos kelishini baholaydi, ya'ni ekologik axborotning ishonchliligi va asoslanganligi haqida xulosa beradi, lekin uning mutlaq aniqligini tasdiqlamaydi;

- ekologik audit obyekt sifatida keng qamrovli ekologik faoliyatni qamrab oladi, bu esa auditorlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.



Shu bilan birga, “Ekoxavfsizlik” ilmiy-tadqiqot markazi mualliflari ekologik audit mazmunini korxonalar faoliyatining atrof-muhitni muhofaza qilish talablari bilan mosligini baholash bilan cheklashadi. Audit mezonlari sifatida atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar hajmi, foydalanilgan suv miqdori, yetkazilgan ekologik zarar hajmi va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif etishadi. Asosiy urg'u – korxonalar faoliyatining tabiatni muhofaza qilish me'yorlariga mos kelishi va texnogen ta'sirni kamaytirish masalasiga qaratiladi. Biroq, ekologik auditning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi ahamiyati yoki ekologik xavfsizlik faktorlarini baholash yetarlicha yoritilmagan.

Shu bilan birga, bu kamchiliklar ilmiy va amaliy jihatdan mazkur ishlarning ahamiyatini kamaytirmaydi, balki mualliflarning yondashuvlarini aniqlashtiradi.

Texnogen va ekologik xavfsizlikni ta'minlashning nazariy jihatlari G. P. Serov, S. L. Baydakov va boshqa olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. G. P. Serovning fikriga ko'ra, “ekologik audit korxonalarida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi”<sup>1</sup>. Kengroq ma'noda esa, ekologik audit Rossiyaning milliy xavfsizlik tizimida ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi sifatida talqin qilinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekologik audit O'zbekiston sharoitida barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlarning uyg'unlashuvini ta'minlovchi kompleks mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik audit yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlarda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va jamiyat salomatligini himoya qilish imkoniyati vujudga keladi. Shu bilan birga, ekologik auditning xalqaro standartlarga mosligi korxonalar uchun “yashil” imidj yaratish, investitsiya jarayonlarida ishonchni kuchaytirish hamda global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekologik auditning iqtisodiy ahamiyati milliy va xalqaro investitsiyalarni jalb etish, ekologik sug'urtalash tizimlarini shakllantirish va xususiylashtirish jarayonlarida xavflarni kamaytirish bilan bog'liqdir. Ekologik jihatdan esa u korxonalar faoliyatining tabiatga ta'sirini baholash, resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilish hamda ekologik xavflarni oldini olish imkonini beradi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, ekologik audit jamiyatda ekologik ongni oshiradi, aholiga ishonchli axborot beradi va korxonaning ijobiy ekologik qiyofasini shakllantirishga ko'maklashadi.

Yuqoridagi ilmiy natijalarga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – ekologik auditni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va milliy sharoitga moslashtirish.
- Majburiy va ixtiyoriy auditni bosqichma-bosqich joriy etish – sohaviy xususiyatlardan kelib chiqib, ayrim korxonalar uchun majburiy ekologik audit tizimini shakllantirish.
- Malaka oshirish va kadrlar tayyorlash – ekologik audit sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.
- Davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish – ekologik audit natijalaridan investitsion va boshqaruv qarorlarida samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.
- Ekologik menejment tizimlarini joriy etish – ISO 14001 kabi xalqaro standartlarga mos tizimlarni keng qo'llash orqali korxonalar global talablarga moslashtirish.
- Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish – ekologik audit natijalarini ochiq e'lon qilish orqali ekologik ongni oshirish va “yashil iqtisodiyot” rivojlanishiga ko'maklashish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Serov, G.P. (2010). Ekologik audit: nazariy asoslari va amaliyoti. Moskva: Ekologiya.
2. Dixon, R.K. (2005). Ekologik audit va uning iqtisodiy samaradorligi. Jurnal of Environmental Economics, 23(2), 35-47.
3. Гранберг А. Г. Основы региональной экономики. Москва: ГУ ВШЭ. 2000
4. Schumacher E. F. Small is Beautiful: Economics as if People Mattered. London: Vintage. 2009
5. Вернадский В. И. Научная мысль как планетное явление. Москва: Наука. 2012
6. ISO 14001 (1996) - Environmental Management Systems – Requirements with Guidance for Use. International Organization for Standardization, Geneva.
7. Elkington J. Towards the Sustainable Corporation: Win-Win-Win Business Strategies for Sustainable Development. California Management Review, Vol. 36, No. 2.1994

1 Г.П.Серов Экологический аудит как механизм обеспечения техногенной и экологической безопасности. // Вестник МГУ. – 2007. – №12. 6 с.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---